



**MOLIYAVIY HISOBOTNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHLARI**

**IMPORTANT ASPECTS OF PREPARING FINANCIAL STATEMENTS IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS**

**<sup>1</sup>G‘aniyev Zafar Usanovich**

*<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrası professori., PhD.*

**Annotatsiya  
Annotation**

*Uzb* - Ushbu maqolada moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida shakllantirish, unga qo‘yilgan talablar bo‘yicha tuzish hamda belgilangan muddatlarda tashqi foydalanuvchilarga taqdim etish zarurligi yoritiladi.

*Eng* - This article discusses the need to formulate financial statements based on international standards, prepare them in accordance with the requirements, and present them to external users within the established deadlines.

**Kalit so‘zlar:  
Keywords:**

- ❖ *buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot, buxgalteriya balansi, aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital.*
- ❖ *international accounting standards, financial reporting, balance sheet, assets, liabilities, equity.*

**Kirish.**

Respublikamizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (keyingi o‘rinlarda - MHXS) asosida tuzish amaliyotini kengaytirish bo‘yicha tegishli islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda korporativ boshqaruvga asoslangan korxonalarda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan hisobotni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali erishish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori MHXSni joriy etish jarayonini tubdan qayta ko‘rib chiqish maqsadida qabul qilindi. Prezidentimizning mazkur Qarorida

2021-yil 1-yanvardan boshlab, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishiga o‘tishi belgilab berildi [1].

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etish muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktabrdagi 181-son buyrug‘iga 1-ilova sifatida qabul qilingan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan. MHXS talablari asosida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va foydalanuvchilarga taqdim etish korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, tashqi investorlarni jalb etish imkoniyatini oshiradi, korxonaning

moliyaviy shaffofligini ta’minlaydi hamda xalqaro bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlashga yordam beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

MHXS asosida moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish bo’yicha bir qancha izlanishlar olib borilgan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olimlardan P.Aynsvort moliyaviy hisobotning nazariy konseptual asoslari hamda aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning metodologik masalalarini [2]; M.I.Kuter esa MHXSlarini Rossiya Federatsiyasida qo’llash masalalarini tadqiq etgan [3].

So’nggi yillarda respublikamizda MHXS talablariga muvofiq moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotni tuzish masalalariga bag’ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar va darsliklar chop etildi.

Xususan, J.Qurbanbaev, S.Djumanov [4], M.Marpatov [5], S.N.Tashnazarov [6], K.B.Urazov [7]lar tomonidan uzoq muddatli aktivlar, tovar-moddiy boyliklar, majburiyatlar, daromad va xarajatlarni tan olish, baholash va moliyaviy hisobotda aks ettirishning metodologik masalalari tadqiq etildi. Xo’jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish va yuritish tartibi bo’yicha Z.N.Qurbanov, F.A.Akramov [8], M.Marpatovlar [9] ilmiy izlanishlar olib borishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolani yozish va uni tahlil etishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, buxgalteriya hisobi, statistika, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

1-son BHXS “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish”ning maqsadi umumiy foydalanishdagi moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotni taqdim etish asoslarini belgilashdan iborat. Ushbu standart korxonaning o’tgan davrdagi moliyaviy natijalarini va boshqa kompaniyalarning moliyaviy hisobotlari bilan taqqoslash imkoniyatini beradi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot kompaniyaning moliyaviy holatini, ya’ni uning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitalining tasniflangan ko’rinishidir. Ushbu hisobot kompaniyaning moliyaviy holatidagi o’zgarishlarni ko’rsatib, tizimli ravishda, asosan tashqi va ichki foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy holatini baholash va faoliyatiga investitsiyalarni kiritish bilan bog’liq qarorlarni qabul qilish uchun taqdim etiladigan axborotlarning standartlashtirilgan tizimidir. Xalqaro standartlarga muvofiq, kompaniyaning moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisoboti quyidagi 1-jadvalda keltirilgan elementlarni o’z tarkibiga olishi zarur.

**1-jadval**

**Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot elementlari**

Mulk (yer), bino va mashina va asbob-uskunalar;
Investitsiyaviy mulk;
Nomoddiy aktivlar;
Moliyaviy aktivlar;
Hissali qatnashish metodi bo’yicha hisobga olingan investitsiyalar;
Biologik aktivlar;
Zaxiralar;
Savdo va boshqa debitorlik qarzlari;
Pul mablag’lari va pul ekvivalentlari;

Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va chiqib ketayotgan guruhlarining sotishga mo'ljallangan aktivlari;
Joriy va muddati uzaytirilgan soliq aktivlari (alohida);
Savdo va boshqa majburiyatlar;
Joriy va muddati uzaytirilgan majburiyatlar (alohida);
Rezervlar;
Moliyaviy majburiyatlar;
Chiqib ketayotgan guruhlar sotishga mo'ljallangan aktivlari bo'yicha majburiyatlar;
Amaldagi kapital va rezervlar;
Nazorat qilinmaydigan qatnashish hisssasi;

Buxgalteriya balansida aks ettirilayotgan axborotlarning tarkibini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida quyidagi

solishtirish jadvalini taqdim etish maqsadga muvofiq.

**2-jadval**

**Buxgalteriya balansida to'g'ridan-to'g'ri aks ettirilayotgan axborotlar**

BHMSlariga muvofiq	MHXSlariga muvofiq takliflar
1. Moddiy aktivlar	1 Mulk, bino, mashina va asbob-uskunalar
2. Nomoddiy aktivlar	2. Nomoddiy aktivlar
	3. Investitsiyaviy mulk
3. Moliyaviy aktivlar	4. Moliyaviy aktivlar (5, 7 va 8 dan tashqari)
	5. Hissali qatnashish asosida kiritilgan investitsiyalar
4. Zaxiralar	6. Zaxiralar
5. Debitorlik qarzi	7. Savdo va boshqa debitorlik qarzlari
6. Pul mablag'i va pul ekvivalentlari	8. Pul mablag'lari va pul ekvivalentlari
	9. Savdo va boshqa kreditorlik qarzlari
7. Kreditorlik qarzi	10. Baholanadigan majburiyatlar
	11. Moliyaviy majburiyatlar (9 va 10dan tashqari)
	12. Soliq majburiyatlari (13dan tashqari)
	13. Foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar
8. Ajratmalar	14. Muddati uzaytirilgan soliq aktivlari
9. Foiz to'lashni talab qiluvchi majburiyatlar	
10. O'z sarmoyasi va zaxiralar	15. Xususiy kapital va rezervlar.

Ushbu jadvalda keltirilgan qoidalarni solishtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: BHMS va MHXS qoidalari asosan bir-biriga mos keladi, biroq ayrim masalalarda takomillashtirish zarurati mavjud.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda axborotlarni aks ettirish qoidalari jihatidan qisqa va uzoq muddatli aktivlarni to'g'ridan-

to'g'ri balansda alohida bo'lim sifatida taqdim etilishi shart.

Qabul qilingan taqdimot usulidan qat'i nazar, aktivlar va majburiyatlarning har bir bandi bo'yicha to'lanishi yoki qoplanishi (a) balans sanasidan keyingi o'n ikki oydan kam bo'lgan muddatda va (b) o'n ikki oydan ortiq bo'lgan muddatda kutilayotgan summalar alohida ko'rsatilishi lozim. Shu bilan birga,

tashkilot o‘n ikki oydan ortiq muddatda to‘lanishi yoki qoplanishi kutilayotgan summalarni ochiqlashi shart.

Qisqa muddatli aktivlar quyidagi mezonlardan kamida biriga mos kelsa aylanma mablag‘ sifatida majburiy ravishda tasniflanadi:


(a) aktivni sotish yoki uni tashkilotning operatsion tsikli doirasida iste‘mol qilish mo‘ljallangan bo‘lsa;

(b) aktiv asosan sotish maqsadida ushlab turilayotgan bo‘lsa;

(c) aktiv hisobot sanasidan keyingi o‘n ikki oy ichida realizatsiya qilinishi kutilayotgan bo‘lsa;

(d) aktiv pul mablag‘lari yoki pul ekvivalentlaridan iborat bo‘lsa (7-son MHXS “Pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi hisobot” standartida belgilangan), agar uni boshqa aktivga almashtirish yoki hisobot sanasidan keyin kamida o‘n ikki oy ichida bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlarni bajarish uchun ishlatish taqiqlanmagan bo‘lsa.


Qisqa muddatli aktivlar – bu operatsion tsikl, hisobot sanasidan keyingi 12 oydan oshmagan davr mobaynida realizatsiya qilinishi yoki pulga aylantirilishi kutilayotgan hamda foydalanish muddati bilan chegaralanmagan aktivlardir. Ularga, jumladan, pul mablag‘lari va boshqa tez likvidli aktivlar kiradi.



**1-rasm. Qisqa muddatli aktivlar tasnifi**

Yuqorida qayd qilingan mezonlariga javob bermaydigan boshqa barcha aktivlar uzoq muddatli aktivlar sifatida tasniflanishi lozim. Chet el adabiyotlarida ko‘pchilik

mulliflar “Yer va yerni obodonlashtirish” hamda “Tabiiy resurslar”ni uzoq muddatli moddiy aktivlar tarkibiga kiritishadi (2-rasm).



**2-rasm. Uzoq muddatli aktivlar tarkibiy qismlari**

Majburiyatlar qisqa muddatli sifatida tasniflanishi uchun quyidagi mezonlardan kamida biriga javob berishi lozim:

(a) ushbu majburiyat tashkilotning odatiy operatsion tsikli doirasida bajarilishi (uzilishi) ko'zda tutilgan bo'lsa;

(b) asosan sotish maqsadiga mo'ljallansa;

(s) hisobot davridan keyin o'n ikki oy davomida to'lanishga yo'naltirilsa;

(d) tashkilot ushbu majburiyatni hisobot sanasidan keyin kamida o'n ikki oy muddatga kechiktirish huquqiga ega bo'lmasa.

Yuqorida keltirilgan mezonlarga mos kelmaydigan barcha boshqa majburiyatlar uzoq muddatli majburiyatlar sifatida tasniflanadi.


1-son BHXSda kompaniyaning to'g'ridan-to'g'ri buxgalteriya balansida yoki bo'lmasa hisobotlarga izohlarda aks ettirishi talab etiladigan axborotlar qatori ham keltirilgan. Kapital bo'limida quyidagi elementlar aks ettirilgan:

1) Nominal qiymati bo'yicha ustav kapitali, ruxsat etilgan va haqiqatda chiqarilgan aksiyalar soni ko'rsatiladi;

2) Emission daromad, aksiyalarning nominal qiymatidan ortgan qismi;

3) Rezerv va taqsimlanmagan foyda;

4) Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi.



**3-rasm. Majburiyatlar va xususiyy kapital tasnifi**

MHXS bo'yicha buxgalteriya balansida moddalarni joylashtirishda ularning likvidlik darajasi hisobga olinadi, ya'ni tez likvidli aktivlardan qiyin likvidli aktivlarga, xuddi

shuningdek, qisqa muddatli majburiyatlardan uzoq muddatli majburiyatlarga o'tish tartibida joylashtiriladi.

**3-jadval**

**Buxgalteriya balansida moddalarni likvidlik darajasiga qarab joylashtirish [10]**

Aktivlar	Majburiyatlar va kapital
<ul style="list-style-type: none"> <li>pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari;</li> <li>savdo va boshqa debitorlik qarzlari, shu jumladan, hisobot sanasidan 12 oydan ortiq qoplanish muddatdagilari;</li> <li>zaxiralar;</li> <li>boshqa moliyaviy aktivlar, shu jumladan, hisobot sanasidan 12 oydan ortiq qoplanish muddatdagilar;</li> <li>hissali qatnashish metodi bo'yicha hisobga olingan investitsiyalar, shu jumladan, hisobot sanasidan 12 oydan ortiq qoplanish muddatdagilar;</li> <li>nomoddiy aktivlar;</li> <li>mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>savdo va boshqa kreditorlik qarzlari, shu jumladan, hisobot sanasidan 12 oydan ortiq qoplanish muddatdagilar;</li> <li>soliq majburiyatlari, shu jumladan hisobot sanasidan 12 oydan ortiq qoplanish muddatdagilar;</li> <li>uzoq muddatli foiz majburiyatlari, shu jumladan, hisobot sanasidan 12 oy davomida qoplanish muddatdagilar;</li> <li>rezervlar, shu jumladan, hisobot sanasidan 12 oy davomida qoplanish muddatdagilar;</li> <li>jami majburiyatlar;</li> <li>taqsimlanmagan foyda;</li> <li>rezerv kapitali;</li> <li>chiqarilgan aksiyadorlik kapitali (shu jumladan, nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi) yoki hissali kapital;</li> <li>jami kapital</li> </ul>

Tashkilot balansida yoki unga ilova tarzida keltiriladigan izohlarda har bir taqdim etilgan chiziqli modda bo'yicha tashkilotning operatsiyalari mazmuniga mos ravishda

tasniflangan klass osti moddalarini ochiqlashi shart. Klass osti moddalarining detallashtirish darajasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablaridan kelib chiqib, tegishli

summalarning miqdori, xususiyati va ularning iqtisodiy mazmuniga qarab belgilanadi. Har bir moddada ochiqlash farqlanadi. Masalan:

a) mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar obyektlari 16-son MHXS xalqaro standarti talablariga muvofiq klasslarga ajratiladi;

b) debitorlik qarzlari, jumladan, xaridor va buyurtmachilar qarzi, bog'liq tomonlar qarzi, oldindan to'lovlar va boshqa qarzlarga ajratiladi;

s) zaxiralar 2-son MHXS "Zaxiralar" xalqaro standarti talablariga muvofiq tovarlar, ishlab chiqarish jo'natmalari, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarga ajratilib ko'rsatiladi;

d) baholanadigan majburiyatlar, xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha baholangan majburiyatlar (19-son MHXS) va joriy soliqlar (12-son MHXS), baholanadigan majburiyatlar (37-son MHXS) va boshqa moddalarga ajratiladi;

e) xususiy kapital va rezervlar to'langan kapital, emission daromad va rezervlarga bo'linadi.

#### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytamizki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari bo'yicha tuzilgan buxgalteriya balansi bir qancha afzalliklarga va bizning amaliyotimizdagi buxgalteriya balansidan farqli jihatlariga ega.

**birinchidan**, MHXS asosida tuzilgan hisobot shakli qisqa va aniqligi bilan ajralib

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son Qarori.
2. Ainsworth, Penne. *Introduction to Accounting: An integrated Approach* /Penne Ainsworth, Dan Deines, R. David Plumlee, Cathy Xanthaky Larson. Irwin, Printed in USA, 2005. 425 r.
3. И.Кутер. *Теория и принципы бухгалтерского учета: Учеб. пособие.*–М.: Финансы и статистика, Экспертное бюро, 2000.–544 с.
4. J.Qurbanbaev, S.Djumanov. *Buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazish yo'llari.*// *Moliya.* 2016 y. №1, 99-104-b.

turadi. Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymatda ko'rsatilgan, mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar esa boshlang'ich qiymatda hamda ularning depresiatsiyasi alohida satrda aks ettiriladi.

**ikkinchidan**, olinadigan va to'lanadigan schotlar savdo va boshqa schyotlarga ajratilib, bu holat pul oqimi to'g'risidagi hisobotni buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni transformasiyalash asosida tuzishga imkon beradi. Shuningdek, muddati uzaytirilgan soliqlar moddasi alohida ajratiladi.

**uchinchidan**, imtiyozli va oddiy aksiyalar bir dona aksiyasining qiymati e'lon qilingan, ishlab chiqarilgan va muomaladagi aksiya miqdori bo'yicha aks ettirilgan. Bu investorlarni axborotlar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

**to'rtinchidan**, foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar boshqa majburiyatlardan ajratilib ko'rsatilib, hisobot shakllarining bir-biriga uyg'unligini ta'minlaydi.

**beshinchidan**, muddati uzaytirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari alohida ajratilib ko'rsatilib, xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqadi.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi milliy buxgalteriya balansini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirishga yordam beradi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning shaffofligini oshiradi.

5. M.Marpatov. *Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari // Bozor, pul va kredit j. -2014. -№9. -55-60-b.*
6. S.N.Tashnazarov. *Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: Muammo va echimlar. Monografiya. T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2016 y. 31-47-b.*
7. K.B.Urazov. *Moliyaviy hisobot: milliy va xalqaro standartlar muvofiqligi yo‘lida. // Bozor, pul va kredit j. -2013. -№4. -57-61-b.*
8. Z.N.Qurbanov, F.A.Akramov. *Moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o‘tishning dolzarb masalalari.//Biznes-ekspert, № 4,2015.*
9. M.Marpatov. *Buxgalteriya balansi – moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot. //Bozor, pul va kredit j. -2016.-№11.-b. 20-24.*
10. Палий В.Ф. *Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебник. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: Инфра-М, 2008. – 57 с.*